

Rasmiy munosabat: Shartnoma shartlari bajarilmaganligi bo'yicha nizolarni ko'rib chiqish sudning vakolati hisoblanadi



Ijtimoiy tarmoqlarda Muzrabet tumani "Agrobioxim" rahbari H.Olimov tumanning sobiq hokimi E.Alimovning ukasi Sh.Alimovga tegishli bo'lgan klaster dalalariga ishlov bergani, lekin ko'rsatilgan xizmat uchun ish haqi to'lab berilmaganligi masalasida murojaat e'lon qilingan.

Mazkur holatda tadbirdor va xizmat ko'rsatuvchi o'rtaida tuzilgan shartnomaga asosan ko'rsatilgan xizmat uchun mablag'ni undirish masalasi tegishli tartibda sudda ko'rib chiqilishini, bunda tuman yoki viloyat hokimligi vakolatga ega emasligini ma'lum qilamiz.

Shuningdek, xizmat ko'rsatuvchidan ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovnini undirish masalasida sudga murojaat qilishini so'raymiz.